

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
FARG'ONA FILIALI**

**“TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA KASBIY TA'LIM”
FAKULTETI
“AXBOROT –TA'LIM TEXNOLOGIYALARI” KAFEDRASI**

**« AXBOROT TASHUVCHI QURILMALARDAN FOYDALANISH
VA ULARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH
JARAYONLARIDA FOYDALANILADIGAN QOIDALARNI
TAXLIL ETISH» mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «Xizmat ko'rsatishning texnikasi va
texnologiyasi (Xizmat ko'rsatish tarmoqlari)
ta'lim yo'nalishi bitiruvchi 4 kurs talabasi
Mahmudov Sarvar

ILMIY RAXBAR:FARDU
dots.Sh.Karimov

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____ sonli bayonnomasi «_____» _____ 2015 yil

FARG'ONA – 2015 yil

M U N D A R I J A.

ANNOTATSIYA

KIRISH.....	3
I.BOB ANALITIK QISM.....	8
1.1. O'zbekistonda axborot va axborot texnologiyalarini rivojlanishi.....	8
1.2 O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llanilishi va ta'lim samaradorligini oshirish.....	11
II.BOB ASOSIY QISM.....	14
2.1.Axborot tashuvchi qurilmalardan fodalanish va ularga teknik hizmat ko'rsatish.....	14
2.2.QATTIQ DISKNING Ide-disk yurutuvchini o'rnatish.....	19
2.3. CD-ROM(RW\DVD) disk yurutuvchini o'rnatish.....	29
2.4. Axboto tashuvchi qurilmalarida yuzaga kelgan dastlabki muammolar, ularni bartaraf etuvchi maxsus dasturlar va qo'llanmalarning yaratilish davri.....	32
III.BOB TAXLILIIY QISM.....	37
3.1. Axborot tashuvchi qurilmalar mikrosxemalarida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishning axamiyati.(USB fleshkalar).....	37
IV.BOB MEXNAT MUXOFAZASI VA XAVFSIZLIK TEXNIKASI.....	49
XULOSA VA TAVSIYALAR.....	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	62

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi: Prezidentimiz I.A.Karimov bugungi kundagi Jahon moliyaviy inqirozga qarshi kurashdagi eng muhim vazifalardan biri deb «**Zamonaviy moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish**»¹ni ko'rsatgan Ana shu vazifani hal qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va foydalanishga o'rgatish, buning uchun samarali usul va uslubyotni ishlab chiqishda asosiy ma'sulyat o'qituvchi va pedagog olimlari zimmasiga tushadi. Yurtboshimiz ularning mehnatiga yuqori baho berib, **«nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini xal qiladigan o'qituvchi va murabbiylarning mehnatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi»** deydi. Shu bilan birga, I.A.Karimovning **«Jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz shart»** degan so'zlari barcha ta'lim muassasalari oldida o'z faoliyatlarini zamonaviy talab va texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etib, ta'lim jarayonida fan va texnikaning eng so'ngi yutuqlarini yoritish vazifasini qo'yadi.

Xozirgi zamon axborot texnologiyalari rivojlanishi juda ham tez sur'atlarda davom etmoqda. Shuni hisobga olgan holda axborot texnologiyalaridan to'liq va samarali foydalanish biz yoshlarning burchimizdir. Bu burch nimalardan iborat ekanligini hamma yaxshi bilsa kerak albatta. Voyaga etayotgan yosh avlodning ongini, bilimini o'stirish uchun axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish kerak. Yoshlar yangilikka intiladi, yangilikni ko'rgach uni o'rganishga xarakat qiladi. Insoniyatning XX asrdagi eng buyuk kashfiyotlaridan biri elektron hisoblash mashinalarining, ya'ni kompyuterlarning ixtiro qilinishidir deb bemalol ayta olish mumkin. Buning ham o'ziga yarasha birmuncha sabablari bor albatta.

Bu borada ya'ni kompyuter texnologiyalarini xalq xo'jaligining barcha sohalariga tadbiq etish, bugungi kunda kompyuter va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalar tarmoqlarini,

1. Karimov I. A. "Jahon moliyaviy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uning bartaraf etishning yo'llari va choralari".—Toshkent.: «O'zbekiston», 2009.-28 b.

ma'lumotlar uzatishni, Internet xizmatlariga kirib borishni rivojlantirish va zamonaviylashtirish respublikamizda ham ustuvor o'rinlarga chiqmoqda. Iqtidorli yoshlar ishtirokida respublikada Internet-festivallar, Internet-forumlar o'tkazish odat bo'lib qoldi, shaharlar va kishloqlarda Internet tarmog'idan jamoa bo'lib foydalanish (internet cafe) punktlari soni tobora ko'paymoqda, axborot xizmatlari turlari sezilarli darajada kengaymokda, ularning servisi yanada intellektualroq bo'lib bormoqda.

Mamlakat Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov 2001 yil may oyida Oliy Majlisning VII sessiyasida so'zlagan nutqida kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini ishlab chiqarishga, maktablar va oliy o'quv yurtlari dasturlariga, odamlarning kundalik turmushiga joriy etish bo'yicha O'zbekistonning yuksak darajalarga erishishi yuzasidan aniq vazifalarni qo'ydi.

Jamiyatni kompyuterlashtirish, axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha vazifalarni xalq etish uchun 2002 yil 30 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida» gi Farmoni qabul qilindi. Farmonda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi axborotlashtirishning milliy tizimlari barpo etilishini, iqtisodiyotga va jamiyatning har bir a'zosi xayotiga kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalari ommaviy joriy etilishi uchun shart-sharoitlarni taxminlaydi, jahon bozorida mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiradi.

Prezident Farmonini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi va 2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturini tasdiqladi, ularda telekommunikatsiyalar va ma'lumotlar uzatishni rivojlantirish, resurslardan foydalanish, Internet tarmog'ida o'z saytlarini yaratishning maqsadli yo'nalishlari belgilandi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va jamiyatning axborotni tezkor ayirboshlashga, jahon axborot resurslariga kirib borishga bo'lgan yuqori ehtiyoji, ta'lim jarayonlarini va kishilarning kundalik turmushini kompyuterlashtirish zaruriyati, shuningdek axborot

va ma'lumotlar bazasi saqlanishini taxminlash ehtiyoji ushbu muhim qarorlar qabul qilinishi uchun asos bo'ldi.

Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida yangi avlodni o'qitishda to'plangan bilimlarni, mahorat va udumlarni etkazish o'ziga xos shakl va jarayoniga ega. O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotida, ayniqsa, ta'lim sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar asosini tashkil etadi. Mazkur hujjatlarda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimining uzviyligini ta'minlash, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish ko'zda tutilgan. Bitiruv malakaviy ishning kompyuter tizimi texnologiyalarining yutuqlari asosida yaratildi. Shu bois respublikaning barcha sohalarini texnik qayta qurollantirish, zamonaviy texnika va texnologiya bilan ta'minlash hamda xalqaro zamonaviy talablarga javob beruvchi telekommunikasiyali va kompyuterli aloqa tizimini rivojlantirish, shaxsiy kompyuterlarni jihozli nazorati va ularga texnik xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish hamda Axborot tashuvchi qurilardan foydalanish va ularga texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalaniladigan qoidalarining tahlil etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Axborot tashuvchi qurilardan foydalanish va ularga texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalaniladigan qoidalarining tahlil etish va ishlab chiqish hamda ularning effektivligini ko'rsatib berish va ishlash prinsipini taxlil qilish. Ixtiyoriy kompyuterning ishlash prinsipini birinchi bo'lib ingliz olimi Charlz Bebig va uning g'oyasini mukammallashgan ko'rinishini Djon Fon Neyman taklif qilgan. Uning prinsipi dastur asosida boshqariladigan avtomatik ravishda ketma-ket ishlash g'oyasidan iborat. hozirda ko'p rusumli kompyuterlar shu g'oya asosida ishlaydi. Lekin keyingi paytlarda ko'p protsessorli kompyuterlar, ya'ni bir vaqtda dasturning bo'laklarini ketma-ket emas, parallel bajaradigan kompyuterlar ham yaratilganligini eslatib o'tish joizdir. Shunday qilib, kompyuter avvaldan tuzilgan dastur asosida ishlaydi. O'z navbatida dastur qo'yilgan masalani kompyuterda yechish uchun qandaydir dasturlash tilida yozilgan

buyruqlar (operatorlar) ketma-ketligidir. Dasturlash tilida to'zilgan dasturlar mahsus tarjimon dasturlar yordamida kompyuter tiliga o'tqaziladi. Kompyuter tili 0 va 1 lardan tashkil topgan, ma'lum qoidalar asosida yoziladigan ketma-ketliqlardan iborat. Djon Fon Neyman prinsipi bo'yicha avtomatik ravishda bajariladigan dastur avval kompyuterning hotirasiga kiritiladi (yuklanadi). Hotirada turgan dastur asosida dasturni tashkil etuvchi har bir operator ketma-ket bajariladi.

Boshqaruv qurilmasi deb ataluvchi mahsus qurilma hozir qanday operator bajarilishi va undan qeyin qaysi operator bajarilishi ustidan nazorat o'rnatadi va uni bajarilishini ta'minlaydi. Amal (arifmetik-mantiqiy) esa protsessor deb ataluvchi qurilmada bajariladi. Dastur ishlash natijasi to'g'ridan-to'g'ri ekranda yoki tashqi qurilma (chop qiluvchii mehanizm, grafiq chizuvchi qurilma, video qurilma va boshqalar) deb ataluvchi qurilmada ko'rilishi mumkin. Odatda kompyuter ikki qismdan: Hardware (kompyuterni tashkil etuvchilari - kompyuterning qattiq qismlari) va Software (kompyuterning dasturiy ta'minoti - kompyuterning yumshoq qismlaridan) tashkil topgan deyiladi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifasi: Axborot tashuvchi qurilardan foydalanish va ularga texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalaniladigan qoidalarining tahlil etish. usullari ishlab chiqish hamda ularning effektivligini ko'rsatib berish.

- Axborot tashuvchi qurilardan foydalanish va ularga texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalaniladigan qoidalarining tahlil etish usullari bilan tanishib chiqish, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish,umumlashtirilgan xulosalar chiqarish;

- Axborot tashuvchi qurilardan foydalanish va ularga texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalaniladigan qoidalarining tahlil etishning didaktik jihatlarini asoslash;

Tadqiqot predmeti va ob'ekti: Axborot tashuvchi qurilardan foydalanish va ularga texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalaniladigan qoidalarining tahlil etish, barcha shaxsiy kompyuterlarni dasturchisi va texnik xizmat ko'rsatuvchisi uchun zarur bo'lgan asbob-uskuna va b; shaxsiy kompyuterlarga tashxis qo`ya olish;

asosiy qurilma xisoblangan sistemali blokda tezda ishdan chiqadigan qurilmalarni almashtirish.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati: Zamonaviy kompyuterlar bilan ishlovchilar hozirgi davrda uning tuzilishi va ishlashini nazorat qilib borishlari zarur bo'ladi. Sezilarli darajadagi o'zgarishlarni o'zlari tuzatib olishlari ham da ishonchli ma'lumotlarni ko'paytirishni bilishlari kerak. EHM bilan muloqot qiluvchi dasturlarni yozishi, informatsiyalarni kiritish va qayta ishlash usullarini o'zlashtirishlari lozim. Foydalanuvchi kerakli ma'lumotlarni yozish, saqlash va nusxasini olishni mukammal bilish kerak. Yuzaga keladigan nosozliklarni bartaraf etish omillari.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Bitiruv malakaviy ishimning yangiligi shundan iboratki axborot tashuvchi qurilardan foydalanish va ularga texnik hizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalaniladigan qoidalarining tahlil etish samaradorligini oshirish usullari EHM ning rivojlanish taraqqiyotida ularni avlodlarga ajratish qabul qilingan bo'lib, ularning har biri elementlarning tayyorlanish texnologiyasi va jihozlarining parametrlari, shuningdek, hal etiladigan masalalar va dasturi bilan ajralib turadi. Axborot tashuvchi qurilardan foydalanish va ularga texnik hizmat ko'rsatish jarayonlarida foydalaniladigan qoidalarining tahlil etish didaktik aspektlarining nazariy tahlil qilinganligi ko'rib o'tdik.

I.BOB ANALITIK QISM.

1.1. O'zbekistonda axborot va axborot texnologiyalarini rivojlanishi.

Axborot lotincha informatsion soʻzidan olingan boʻlib nimanidir tushuntirish, bayon qilishni, nima haqidadir xabar maʼnosini bildiradi. Axborotga ishlov berish kabi tushuncha yaqinda paydo boʻldi, ammo odamlar axborotga ishlov berishni ancha oldinroq boshlaganlar.

Axborot ustida aniq texnik vositalar yigʻindisi yordamida zarur harakatlarni bajarish jarayoni axborot texnologiyasi deb ataladi. Hurmatli oʻquvchilar, hisoblash texnikasi bilan toʻgʻri va samarali ishlash uchun quyidagi qoidalarni bajarish kerak.

Oʻquvchilarning hisoblash texnikasi xonasida ishlash qoidalari:

1. Hisoblash texnikasi xonasida narxi qimmat, murakkab va ehtiyotkorlik hamda avaylab muomala qilishni talab etuvchi uskunalar oʻrnatilgan. Shuning uchun:

- Bu texnikani ehtiyotkorlik bilan ishlating;
- Xonaga tinchgina, shoshmasdan, bir biringizni itarmasdan, stollarga tegmasdan kiring va oʻzingizga ajratilgan joyni egallang.

2. Sizning ish stolingizda kompyuter tizimining tarkibiy bloklari - tizimli blok, klaviatura va monitor (display) joylashtirilgan.

Ish paytida monitor (display)ning nur trubkasi yuqori kuchlanishda ishlaydi. Uskuna kabel, monitor bilan notoʻgʻri muomala qilish, uni notoʻgʻri ishlatish elektr tokidan qattiq zararlanishga, uskunalarining yonib ketishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun quyidagilar qatʼiyan man qilinadi:

- ulash kabellarining ajratish joylariga tegish;
- tok oʻtgan simlar va yerga ulash moslamalariga qoʻl tekkizish;
- monitorning ichki tomoniga tegish;
- hoʻl yoki nam kiyimda va hoʻl qoʻllar bilan ishlash.

3. Kuyundi hidi paydo boʻlishi bilan darhol ishni toʻxtating, uskunani oʻchiring va bu haqda oʻqituvchiga xabar qiling.

4. Ish boshlashdan avval:

- ish joyingizning yaqqol ko'zga ko'rinadigan buzilishlari, nosozligi yo'qligiga amin bo'ling;
- shunday o'tiringki, nigohingiz chizig'i ekranning o'rtasiga to'g'ri kelsin, klaviaturadan foydalanganingizda va monitor ekrani orqali o'tilayotgan axborotni qabul qilish uchun egilmaydigan bo'ling;
- stolda daftar, o'quv qo'llanmasi, shaxsiy kompyuterdan foydalanish jurnalini: ularni sizning ishingiz uchun xalaqit bermaydigan qilib joylashtiring.

5. Shaxsiy kompyuter ishlab turgan paytda videomonitorning nur trubkasi elektromagnit to'lqin chiqarish manbasi bo'ladi va u ekran yaqinidan ishlaganda ko'rish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, charchoq va ish qobiliyati pasayishini keltirib chiqaradi. Shuning uchun undan 60-70 santimetr masofada, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilib, bukilmasdan, egilmasdan o'tirib ishlash lozim. Doimiy ta'qib yurish uchun ko'zoynakka ega bo'lgan o'quvchilar ko'zoynaklarini taqib ishlashlari kerak.

6. Shaxsiy kompyuterda ishlash katta e'tiborni, diqqatni jamlashni, harakatlarning aniq bo'lishini, o'z-o'zini nazorat qilishni talab qiladi, shuning uchun:

- yetarlicha yoritilmagan xonada;
- odam o'zini yomon his qilganda shaxsiy kompyuterda ishlash mumkin emas.

7. Ishlash paytida:

- yuqorida bayon qilingan hamma qoidalarga va o'qituvchining joriy ko'rsatmalariga qat'iy amal qiling;
- uskunalarning soz bo'lishini kuzatib boring va odatdagidan boshqacha tovushlar paydo bo'lganda yoki uskuna o'z- o'zidan o'chib qolganda ishni darhol to'xtating. Bu haqda zudlik bilan o'qituvchiga xabar qiling;
- tugmachalarni asta bosing, keskin zarblarga yo'l qo'ymang;
- uskuna ishidagi nosozlikni o'zingiz mustaqil bartaraf etishga hech qachon urinmang.

Siz ushbu qoidalarni bilishingiz va ularni bajarishingiz, o'qituvchingizning ko'rsatmalariga aniq amal qilishingiz lozim. Bu:

- baxtsiz hodisalarning oldini olish;
- bilimlar, mahorat, ko'nikmalarni muvaffaqiyatli egallash;
- davlat mulki bo'lmish hisoblash texnikasi va uskunalarini saqlab qolish uchun zarurdir.

Siz ish joyning ahvoli va unda o'rnatilgan uskunalarining saqlanishi uchun javob berasiz.

Qoidalarni bajarmaslik - tartib va intizomning qo'pol tarzda buzilishidir

1.2 O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llanilishi va ta'lim samaradorligini oshirish.

Axborot texnologiyalarining takomillashtirilishi jamiyatni axborotlashtirishda muxim omil xisoblanadi Insoniyat o'zining faoliyatida axborotlarni qabul qilish, yig'ish, saqlash, uzatish va qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Ushbu amallarning kompyuterga yuklatilishi va ularni amalga oshirish usul va vositalarining paydo bo'lishi, axborot texnologiyalarini aloxida fan sifatida ajralib chikishiga sabab bo'ldi. Axborot texnologiyasining asosiy o'zagini kompyuter tashkil etib, uning texnik ta'minotini taxminlaydi. Axborotni qayta ishlashni tashkil etish uchun axborot texnologiyasining texnik ta'minoti yagona bulmay, balki axborot ta'minoti, tashkiliy ta'minoti va dasturli ta'minoti birgalikda qaralishi lozim. XX asrning 90-yillaridan boshlab axborotlashtirish soxasi keskin rivojlanib ketdi. Bizning asrimiz, yaxni XXI asrni axborotlashtirish va kommunikatsiya asri deb bejiz atashmaydi. Axborotlashtirish nima va uning vazifalariga nimalar kiradi, uning asosiy xususiyatlari kanday, degan savollar xozirgi zamon jamiyatidagi xar bir fukaroni kiziktirishi tabiiy, Chunki inson faoliyatini axborotsiz tasavvur qilish qiyin.

Xozirgi kunda xar bir tashkilot, o'quv muassasasi, firma va ishlab chiqarishning barcha soxalarida raxbar va xodimlar faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida boshqaruv jarayonlarini ma'lum darajada avtomatlashtirishga oid muammolarni echish bilan shug'ullanadi. Bunda ular maxsus firmalarning mutaxassislari bilan uchrashadi, ularning faoliyati bilan yaqindan tanishadi, ular ishlab chiqaradigan maxsulotlarni ko'radi va pirovardida o'zida avtomatlashtirish uchun kerak bo'ladigan texnik jixozlarni xarid qiladi. Albatta, tashkilotlarga o'rnatilgan avtomatlashtirish jixozlari yildan-yilga yangilanib, texnik jixatdan takomillashtirib boriladi.

XX asrning so'nggi o'n yili mobaynida axborotlar bilan ishlash va axborotlashtirish juda rivojlandi. Bunta sabab shundaki, kundalik turmushda axborotlar, ularni qayta ishlash va uzatishning ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa, o'z

navbatida jamiyatning xar bir a'zosidan axborotlashtirish va axborot texnologiyalari sirlarini, uning qoida va qonuniyatlarini mukammal bilishni taqozo etadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng, axborotlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish yo'nalishida katta tadbirlar amalga oshirildi. Xukumatimiz tomonidan qabul qilingan «Ta'lim tug'risida»gi qonunda bu dasturning tub mohiyati bayon etilgan. Shuningdek, so'nggi 5-6 yil ichida bu sohada qabul qilingan qator xujjatlar axborotlashgan jamiyatni qurish eng oliy insoniy orzu-niyatga aylanganligidan dalolat beradi. Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan bog'liq faoliyat sohalari tashkil kiladi. Axborot texnologiyalari sohasida bevosita ishlamaydigan odamlar ham kundalik ishlarida uning imkoniyatlaridan foydalanadi. Axborot texnologiyalari turmushning barcha sohalariga borgan sari ko'proq singib borib, uning xarakatlantiruvchi kuchiga aylanmokda.

Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda saralovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi turlarga ajratish mumkin. Birinchi turdagi texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni, vaqtini tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mehnatxona xisob-kitoblari tizimlari misol buladi. Yaratuvchi (ijodiy) axborot texnologiyalari axborotlarni ishlab chiqadigan, undan foydalanadigan va insonni tarkibiy kiem sifatida o'z ichiga oladigan tizimlardan iborat.

Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti xamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmokda. Chunki aynan mana shu narsa butun jamiyatning axborotlashtirilishi uchun asos va muxim zamin bo'ladi.

Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish, mamlakat fan-texnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi.

Darxaqiqat, jamiyatni axborotlashtirish — inson xayotining barcha jabxalarida intellektual faoliyatning rolini oshirish bilan bog'liq ob'ektiv jarayon xisoblanadi.

Jamiyatni axborotlashtirish respublikamiz xalki turmush darajasining yaxshilanishiga, ijtimoiy ehtiyojlarning kondirilishiga, iqtisodning o'sishi xamda fan-texnika tarakkiyotining jadallashishiga xizmat qiladi.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayonini 5 asosiy yunalishga ajratish mumkin:

1. Mexnat, texnologik va ishlab chiqarish jarayoni vositalarini kompleks avtomatlashtirish.
2. Ilmiy tadkikotlar, loyixalash va ishlab chiqarish jarayonlarini axborotlashtirish.
3. Tashkiliy — iqtisodiy boshqarishni avtomatlashtirish.
4. Axoliga xizmat ko'rsatish soxasini axborotlashtirish.
5. Ta'lim va kadrlar tayyorlash jarayonini axborotlashtirish

II. ASOSIY QISM.

2.1. Axborot tashuvchi qurilmalardan fodalanish va ularga texnik xizmat ko'rsatish.

Egiluvchan (moslashuvchan) disklar uchun disk yurutuvchini o'rnatish

Floppy disk yurutuvchini o'rnatish uchun quyidagilarni bajarish lozim:

1. Ish joyi va asboblarni tayyorlash.
2. Shaxsiy kompyuterni toksizlantirish. Buning uchun uni elektr tarmog'idan o'chirish. To'planib qolgan zaryadni olib tashlash (yo'qotish) uchun kompyuter elektr tarmoqqa ulanmagan holatda Power tugmasini bosish.
3. ShK korpusini ochish.



1- rasm


4. Floppy disk yurutuvchiga mahkamlangan joydagi oldi panelni olib tashlash.



2- rasm

5. Oldi panel olib tashlangandan so'ng ikkita vintli qo'shimcha (podstavka) ko'rinadi, vintlar qo'l bilan burab chiqariladi,

Bu vintlar sug'urib olingach, qo'shimcha (podstavka) tortib chiqaziladi (ko'pgina shaxsiy kompyuterlar bunday qo'shim-cha bilan jihozlanmaydi va disk yurutuvchi korpusni ushlab turuvchi ustunlarga o'rnatib qo'yiladi).



3- rasm

6. Bu tartib chiqarilgan qo'shimchaga (tortmaga) Floppy-diskni o'rnatish zarur. Disk yurutuvchini qo'shimcha tortmaga mahkamlovchi vintlar, odatda, korpus bilan birga sotiladigan maxsus mahkamlovchi to'plami tarkibiga kiradi.



4-rasm

7. Tizimli blokka installyatsiya qilish. Disk yurutuvchi tizimli blokka installyatsiya qilishga tayyor.

Endi disk yurutuvchi joylashgan qo'shimcha tortmani tizimli blokka joylashtirish va disk yurutuvchi qanday o'rnatilgan bo'lsa, shu tarzda, qo'l vintlari bilan yaxshilab mahkamlab qo'yish kerak, xolos.

Installyatsiya tugagach, tashqi tomondagi panel yana o'z joyiga mahkamlab qo'yiladi.

CD-disk o'rnatiladigan bo'lsa, yuza tomondagi panelni mahkamlash kerak emas.



5- rasm




Tizimli blokning ichki va tashqi ko‘rinishi.

6- rasm



7- rasm

8. Ma’lumotlarni uzatish uchun moljallangan maxsus kabel (egiluvchan disklar uchun 34 tishli kabel) yordamida disk yurutuvchini ona platasiga bog‘lash va ta’minot bloki orqali tokka ulash.



8- rasm



9 rasm.



10- rasm

9. Tizimli blokni yopish.

10. Shaxsiy kompyuterni ishga tushurish va BIOSga kirish. Disk yurutuvchini ulangan yoki ulanmaganini tekshirish (BIOSning ayrim modellarida uni mustaqil ulash kerak bo‘ladi), BIOSning quyidagi bo‘limlarini tekshirish:

Floppi Disk Access Control (R/W)

Floppi Disk Access Control (R/W) funksiyasi “BIOS Features SETUP” menyusida bo‘lishi va disketaga o‘qish/yozish imkoniyatini aniqlab berishi mumkin. «Real oply» kabi opsiyani qo‘shish axborotni ruxsatsiz undan nusxa ko‘chirishdan himoya qiladi. Ba’zi BIOS lar parametrlarining belgilari sifatida oddiy «Enobled» va «Disabled» ga ega bo‘ladilar. Bunday holda shu parametrning echimi axborotni disketaga yozishga imkon beradi, aks holda disketani faqat o‘qish mumkin bo‘ladi, xolos.

Xatolar haqida quydagi xabarlar paydo bo‘lishi mumkin:

Floppy CNTRLR ERROR OR NO CNTRLR PRESENT


Egiluvchan disklar nazoratchi (kontrolloryori)ni initsiallashtirish imkoni yo‘q. «BIOS Setur»da ko‘rsatilgan boyicha nazoratchini o‘rnatilishi va disk yurutuvchining parametrlarini tekshirish lozim.

FLOPPY DISK (s) fail

Nazoratchini, floppy – disk yurutuvchini o‘zini topish yoki initsiallashtirish mumkin emas.

Bunday holda bundan oldingi amallarning to‘g‘ri bajarilganini tekshirib ko‘rish lozim.

O‘rnatish to‘g‘ri amalga oshirilganida disk yurutuvchi o‘z vazifalarini aniq belgilab olishi kerak.



11- rasm

2.2.QATTIQ DISKNING Ide-disk yurutuvchini o‘rnatish

Qattiq diskni o‘rnatish

Kompyuterga qattiq diskni o‘rnatish uchun quyidagi ishlarni bajarish kerak:

- to‘plovchi (nakopitel)ni sozlash;
- nazoratchi (kontrolliyor)ni yoki interfeys uskunasini sozlash;
- to‘plovchini kompyuterning korpusiga o‘rnatish;
- tizimni to‘liq sozlash;
- diskni mantiqan taqsimlash;
- yuqori darajadagi formatlashni bajarish.

Qattiq diskni o‘rnatishga kirishishdan avval kompyuterning to‘plovchisining, nazoratchisining yoki BIOS tizimli asosiy adaptorining va boshqa uskunalarining hujjatlarini o‘rganib chiqish lozim. Kompyuterga nimadir xarid qilinganida, undan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma, uskunaning tavsifnomasi bor-yo‘qligini tekshirib ko‘rish kerak. Odatda, ko‘pchilik ehtiyot qismlar va uskunalar uchun ularga ilova qilinadigan yo‘riqnoma va tavsifnomalarning o‘zi yetarli bo‘ladi. Lekin kompyuterga professional xizmat ko‘rsatish uchun kompyuterning hamma tarkibiy qismlariga tegishli hujjatlarga toliq ega bo‘lish kerak. Hujjatlar to‘liq bo‘lmagan hollarda ishlab chiqaruvchi firmaga bevosita murojaat qilib, unga mahsulotning to‘liq texnik tavsifnomasini buyurtma qilish zarur.

To‘plovchining konfiguratsiyas

To‘plovchini montaj qilishdan avval uni konfiguratsiyalab (ma’lum shaklga keltirib) olish kerak. IDE rusumli to‘plovchilarning ko‘pchiligi uchun «vedushiy-vedomiy» (yetakchi-tobe) pereklyuchatelini o‘rnatish yoki Cable Select imkoniyatlaridan foydalanish lozim.



IDE interfeysli disk yurutuvchilar uchun quyidagi konfiguratsiyalar tavsiya qilinadi:

- Birlamchi IDE: bir qavatli Master Primary IDE kabi qattiq disk.

- Ikkilamchi IDE: bir qavatli Master sifatidagi CD/DVD disk yurutuvchi.

Agar shaxsiy kompyuter egasiga IDE tarqibiy qismlaridan to'liq foydalanish zarur bo'lsa, disk yurutuvchilarni quyidagi tartibda ulash kerak:

- Birlamchi IDE: ikki qavatli Master kabi qattiq disk 1.
- Birlamchi IDE: ikki qavatli Slave kabi qattiq disk 2.
- Ikkilamchi IDE: ikki qavatli Master kabi SD/DVD 1 disk yurutuvchi.
- Ikkilamchi IDE: ikki qavatli Slave kabi SD/DVD 2 disk yurutuvchi.

O'rnatish

Qattiq disk o'rnatish uchun joy bo'shatish.



13- rasm

Qattiq diskni tizimli blokda unga ajratilgan joyga o'rna-tish.




14 rasm



15 rasm

Ma'lumotlarni uzatish uchun diskni mahkamlab elektr manbaiga kabelni ulash kerak.



16- rasm

Tizim konfiguratsiyasi

Qattiq disk kompyuter korpusiga montaj qilib bo'linganidan so'ng, tizimni konfiguratsiyalashtirishga kirishish mumkin. Tokka ulanishi bilan, yuklanish to'plovchidan amalga oshirilishi uchun kompyuterga to'plovchi haqidagi axborotni xabar qilish kerak. Bu axborotni kiritish va saqlash usuli to'plovchi va kompyuterning turiga bogliq bo'ladi. Qattiq disklarning ko'pchiligi uchun (SCSI turidagilardan tashqari) sozlashning standart jarayonlari mavjud. SCSI to'plovchilarini konfiguratsiyalash murakkab ish bo'lib u kompyuterga o'rnatilgan asosiy adaptorning turiga bog'liqdir.

To'plovchining turini avtomatik tarzda aniqlash

Zamonaviy BIOSlarda IDE to'plovchilarning deyarli hammasi uchun, turlarni avtomatik tarzda aniqlash ko'zda tutilgan. Ya'ni tizimning so'roviga ko'ra to'plovchidan uning tavsifi va zarur parametrlari o'qiladi. Bunday yondashilganda, parametrlar qo'lda kiritilgan holatda yuz berishi mumkin bo'lgan xatolar amalda istisno qilinadi.

Formatlash

Qattiq diskning unumdorligi va ishonchliligi sozlash va formatlashning to'g'ri bajarilishiga bog'liq. Bu bo'limda diskni to'g'ri formatlashga yordam beruvchi amallar ko'rib chiqiladi. Kompyuterga yangi to'plovchi o'rnatyotganda bu amallardan foydalaning.

Qattiq diskdagi to'plovchini formatlash uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Quyi darajali formatlash.
2. Bo'limlarga mantiqiy taqsimlash.
3. Yuqori darajali formatlash.

Quyi darajali formatlash

Quyi darajali «haqiqiy» formatlashda diskda yo'laklar va sektor (bo'lim)lar shakllantiriladi. Bu jarayonni bajarishda xizmat axboroti diskning butun yuzasiga yoziladi. Quyi darajali formatlashni noto'g'ri bajarilishi, ma'lumotlarni o'qish va yozish jarayonida ma'lumotlarni yoqolishiga yoki tez-tez xatolarga yo'l qo'yilishiga olib keladi. Odatda, quyi darajali formatlash diskni ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshirilgan bo'ladi va bu ishni takroran bajarish favqulodda holatlardagina zarur bo'lishi mumkin. Quyi darajali formatlash uchun maxsus dasturlardan (eng yaxshisi ishlab chiqaruvchi-ning yoki bu ish bilan maxsus shugullanuvchilarning, masalan, Ontrack firmasining Disk Manager yoki Micro 2000 firmasining Micrascope dasturlaridan) foydalanish zarur.

Qattiq diskning bo‘limlarini tashkil qilish

To‘plovchini bo‘lish – disk sonalarini belgilashdir. Bunda amallar tizimi (AT) ularni alohida bo‘linmalar yoki tomlar sifatida ishlatadi. Diskning bo‘limlarini tashkil qilishda uning bi-rinchi sektoriga (0 – silindr, 0 – golovka, 1-sektor) bosh yuklanuvchi yozuv (Master BOOT Record-MBR) kiritiladi. Diskda mavjud bo‘limlar qaysi silindr, golovka, sektorlardan boshlanib, qaysilarida tugashi haqidagi ma’lumotlar unda qayd etiladi.

Tizimli BIOS uchun bo‘limlarning qaysi biri yuklanuvchi ekanligi, ya’ni amallar tizimining asosiy fayllarini qayerdan izlash lozimligi haqidagi ko‘rsatmalar ham shu yerda qayd qilinadi. Qattiq diskdagi to‘plovchilarni taqsimlash uchun Windows-98 yoki DOS amallar tizimidan olingan Fdisk dasturidan foydalanish lozim. Format dasturining normal ishlashi uchun, Fdisk dasturi bajarilishi davomida, taqsimlash jadvali yuklanuvchi sektorga (diskdagi bosh yuklanuvchi yozuvini kiritiluvchi birinchi sektor) yoziladi. Istalgan amallar tizimini o‘rnatishdan avval diskni bo‘limlarga taqsimlab olish zarur.

Fdisk (Windows va DOS) dasturlarining barcha talqinlari diskni taqsimlashning ikkita asosiy va qo‘shimcha turlarini tuzish imkonini beradi. Asosiy bo‘lim yuklanuvchi bo‘lishi mumkin, qo‘shimcha bo‘lim esa bunday bo‘la olmaydi. Agar kompyuterda bittagina qattiq disk o‘rnatilgan va kompyuter shu qattiq diskdan yuklanadigan bo‘lsa, mazkur diskning kamida bir qismi asosiy bo‘lim bo‘lishi kerak. Diskning asosiy bo‘limi C: harfi bilan, qo‘shimchalari esa – qolgan harflar bilan D: E: va h.k. belgilanadi. Bitta qo‘shimcha bo‘lim diskning bitta harfini (DOS mantiqiy diski) yoki bir nechta mantiqiy disklarni saqlashi mumkin.

«DOS mantiqiy diski» atamasi faqat DOS amallar tizimini ishlatishnigina nazarda tutmaydi. Istalgan amallar tizimi: Windows-95, 98, Me, NT, 2000, XP, Linux va h.k. ishlatilishi mumkin.

Ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida ham disklarni bo‘limlarga taqsimlash zarurdir. Diskni, masalan, quyidagi tartibda (sxemada) taqsimlash mumkin:

S: -amallar tizimi;

D: -ilovalar;

E: -ma'lumotlar.

Bunday holda asosiy va qo'shimcha bo'limlar tuziladi, qo'shimcha bo'limda esa ikkita mantiqiy disk tashkil qilinadi.

Diskning bunday tartib (chizma)da taqsimlanishi, ma'lumotlarga nisbatan xavfsiz sharoit yaratishdir – S: va D: diskarning barbod bo'lishi ularga ta'sir ko'rsatmaydi. Bundan tashqari, ma'lumotlardan zaxiraviy nusxa ko'chirish jarayoni soddalashadi, bir nechta diskarga sochilgan papkalar emas, E: diskining nusxasi tuziladi.

FDISK dasturni ishga tushirish

FDISK dasturini ishga tushirish vaqtida disk testdan o'tkaziladi va uning o'lchami 512 Megabaytdan oshsa, quyidagi xabar paydo bo'ladi:

Kompyuter 512 Megabaytdan oshiq hajmli diskka ega. Windowsning mazkur talqini katta diskarni qo'llashni o'z ichiga oladi va bunday diskardagi joydan samaraliroq foydalanish, shuningdek, 2 Gegabaytdan oshiq o'lchamli diskarni bitta disk kabi formatlash imkonini beradi.

DIQQAT! Agar katta diskarni qo'llash ulansa va ularda yangi disk yaratilsa, yangi diskka boshqa amallar tizimidan, shu jumladan, Windows-95 va Windows-NTning ba'zi talqinlari, shuningdek, Windows va MS-DOSning ancha oldingi talqinlariga kirish mumkin bo'lmay qoladi. Bundan tashqari, FAT 32 fayl tizimini ochiqdan ochiq qo'llab-quvvatlamaydigan disk xizmat dasturlari bu disk bilan ishlay olmaydilar. Bu diskka boshqa amallar tizimlaridan yoki ancha eski xizmat dasturlaridan murojaat qilinganida katta diskarni qo'llab-quvvatlashni ulamang. Katta (Y/N).....? [N] diskarni qo'llab-quvvatlashni ulaysizmi?

Bu savolga tasdiqlovchi javob berilganida, o'lchamlari 512 Megabaytdan katta bo'lgan barcha bo'limlar FAT 32 fayl tizimiga ega bo'lishadi. Bundan tashqari, tasdiq javobi 2 Gegabaytdan katta o'lchamli bo'lim tuzish uchun zarur.

Menyuning quyidagi buyruqlari paydo bo‘ladi:

Joriy qattiq disk: 1.

Harakatni tanlang:

1. DOS bo‘limi yoki DOS mantiqiy diskni tuzish.
2. Faol bo‘limni tanlash.
3. DOS bo‘limi yoki mantiqiy diskni yo‘qotish.
4. Mavjud bo‘limlar haqidagi ma’lumotlarni chiqarish.
5. Joriy diskni almashtirish.

Tanlangan harakat raqamini kiriting: [1].

Beshinchi buyruq tizimda bir nechta qattiq disk o‘rnatilgan bo‘lgandagina paydo bo‘ladi. Joriy diskning raqami birinchi qatorda aks etadi. Bo‘limni tuzish uchun birinchi buyruqdan foydalaniladi. Agar disk bo‘lingan bo‘lsa, unda uning tarkibini ko‘zdan kechirish uchun to‘rtinchi buyruqdan foydalaniladi.

Birinchi buyruq tanlanganida quyidagi menyu paydo bo‘ladi.

DOS bo‘limi yoki mantiqiy diskni tuzish:

Joriy qattiq disk: 1.

Harakatni tanlang:

1. DOSning asosiy bo‘limini tuzish.
2. DOSning qo‘shimcha bo‘limini tuzish.
3. DOSning qo‘shimcha bo‘limida DOSning mantiqiy disklarini tuzish.

Tanlangan harakat raqamini kiriting: [1].

Avval yuklanuvchi diskda asosiy bo‘limni tuzib olish kerak, so‘ngra esa qolgan disklarda qo‘shimcha bo‘limlarni tuzish lozim. Bo‘limlar tuzib olingach, ularning birini faol qilish kerak (ko‘pincha bu yuklanuvchi diskdagi asosiy bo‘lim bo‘ladi). Buning uchun ikkinchi buyruq ishlatiladi. Bo‘limlarni tuzib, kompyuterni qayta

yuklang va yangi bo‘limlarni yuqori darajali formatlashga hamda amallar tizimini o‘rnatishga kirishing.

Diskning bo‘limlarini Partition Magik dasturi yordamida tuzish

Diskni bo‘limlarga Partition Magik dasturi yordamida ham bo‘lish mumkin. Bu dastur, shuningdek, ma’lumotlarga shikast yetkazmagan holda, bo‘limlarning o‘lchamlarini o‘zgartirish, FAT 16 fayl tizimini FAT 32 tizimiga aylantirish va aksincha qilish imkonini ham beradi. Mazkur dasturning Fdisk dasturidan sezilarli farqi – uning yuqori darajada harakat qilishidir.

Yuqori darajali formatlash

Qattiq diskni dasturiy sozlashning oxirgi bosqichi - yuqori darajali (ya’ni amallar tizimi darajasida) formatlashdir. Bu jarayonning asosiy maqsadi - Windows 9x va DOS amallar tizimlari fayllarga murojaat qila olishlari uchun fayllar joylashuvi jadvali (FAT) va kataloglar tizimini tuzishdir.

Odatda, yuqori darajali formatlash Format standart buyrug‘i yordamida amalga oshiriladi. Bu buyruqning ko‘rinishi quydagicha:

Format C: /S /V

Bu buyruq bo‘yicha C: diskning yuqori darajali formatlashi amalga oshiriladi. Uning boshlanishida amallar tizimining yopiq (tizimiy) fayllari joylashtiriladi, oxirida esa tom belgisini kiritish taklif etiladi.

Yuqori darajali formatlashda bir qator amallar bajariladi:

1. Diskning sirti, quyi darajali formatlash jarayonida nuqsonli deb belgilangan yo‘laklar va sektorlarni topish maqsadida, skanerlanadi va ularni hisoblash mumkin emasligi qayd etiladi.
2. Golovkalar birinchi bo‘linish silindiriga qaytadilar va uning birinchi sektoriga (1 golovka, 1 sektor) DOS tomi (yuklovchi sektor)ning yuklovchi yozuvi kiritiladi.
3. Keyingi sektor (1 golovka, 2-sektor)dan boshlab FAT jadvali yoziladi. Undan so‘ng darhol FATning ikkinchi nusxasi yoziladi. Bu jadvallar hozircha bo‘sh, ularda faqat sirtning nuqsonlarini ko‘zdan kechirish paytida ro‘yxati tuzilgan nuqsonli klasterlarning koordinatalari bor, xolos.
4. Bo‘sh ildiz katalogi yoziladi.

5. Agar dastur /S parametri yordamida ishga tushirilgan bo'lsa, unda diskka Io.sys va Msdos.sys tizimli fayllari (yoki foydalaniladigan amallar tizimining turidan kelib chiqqan holda Ibmbio. com va Ibmdos.com) hamda Command.com faylining nusxalari diskga (aynan shu tartibda) ko'chiriladi.

6. Agar dastur /V parametri yordamida ishga tushirilgan bo'lsa, tomning belgisi (Voluma label)ni kiritish taklif qilinadi. Bu belgi ildiz katologning to'rtinchi elementi sifatida yozib qo'yiladi.

Endi, amallar tizimi, yozish va fayllarni sanashda diskdan foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, disk yuklovchi diskka aylanadi.

Yuqori darajali formatlashning birinchi bosqichida diskning sirti, nuqsonlarini aniqlab topish maqsadida, skanerlanadi. Quyi darajali formatlashda belgilangan nuqsonlar endi sanalmaydigan yo'laklar va sektorlar sifatida ko'rinadi. Dastur bunday uchastkani aniqlagach, unda yozilgan ma'lumotlarni o'qish uchun besh martagacha urinish qilib ko'radi. Agarda nuqsonlar quyi darajali formatlashtirishda belgilab qo'yilgan bo'lsa, odatda, bu urinishlarning birortasi ham samara bermaydi.

Beshta urinishdan so'ng format dasturi navbatdagi yo'lak va bo'limlarga o'tadi. Beshta urinishdan so'ng ham ma'lumot-larni o'qib bo'lmagan uchastkalar FAT jadvalida nuqsonli klasterlar sifatida qayd qilib qo'yiladi.

Fdisk va Format dasturlarining cheklovlari

Fdisk dasturidan foydalanilganda, qattiq diskning avvalgi tuzilishi - bo'limlari va mantiqiy disklari buziladi. Shunday qilib, ushbu dasturni ishga tushirishdan avval diskda mavjud bo'lgan hamma ma'lumotlarning zaxiraviy nusxalarini tayyorlab olish kerak.

Quyida Fdisk va Format dasturlarining asosiy cheklovlari ro'yxati keltirilgan:

- Fdisk dasturi disk harfining «do'stona» usulda o'zgarishini ta'minlamaydi.
- Diskni bo'limlarga taqsimlagandan so'ng Format dasturini ishga tushirish lozim.
- Bu dasturlar multiyuklanuvchi diskni tuzish imkonini bermaydi.
- Bu dasturlar ma'lumotlarni yangi diskka ko'chirish vositalarini ta'minlamaydi.

Fdisk va Format dasturlarining cheklanishlari bu bilan tugamaydi. Bu ro'yxatni davom ettiraverish mumkin. Qattiq disk ishlab chiqaruvchilarning ayrimlari yangi diskni avtomatik ravishda o'rnatish maxsus dasturini yaratdilar. Bu dasturlarda Fdisk va Format dasturlarining sanab o'tilgan kamchiliklari yo'q. (Masalan, Ontrack firmasining Disk Manager, StorageSoft firmasining EZ Drive va Drive Pro, Seagate firmasining Disk Wizard, Max Blast dasturlari).

2.3. CD-ROM\RW\DVD) disk yurutuvchini o'rnatish



17 rasm

SD-ROM disk yurutuvchini o'rnatish jarayoni vinchesterni o'rnatish jarayoniga o'xshashdir. Avval djamperlarning to'g'ri o'rnatilgani tekshiriladi. (Slave\Master installyatsiyaning turiga bog'liq ravishda, agar disk yurutuvchi qattiq disk bilan bir shleyfga o'rnatilsa, unda disk yurutuvchi slave bo'lishi kerak).

IDE Interfeysli disk yurutuvchilar uchun quyidagi konfiguratsiyalar tavsiya qilinadi:

- birlamchi IDE (bir qavatli) Master Primary IDE kabi qattiq disk;
- ikkilamchi IDE (bir qavatli) Master sifatidagi SD/DVD disk yurutuvchi.

Agar xususiy kompyuter egasiga IDE tarqibiy kismlarining hammasidan foydalanish talab qilinsa, disk yurutuvchilarni quyidagi tarzda ulash kerak:

- birlamchi: IDE (ikki qavatli) Master kabi qattiq disk 1;
- birlamchi: IDE (ikki qavatli) Slave kabi qattiq disk 2;
- ikkilamchi IDE (ikki qavatli) Master kabi CD/DVD disk yurutuvchi 2;
- ikkilamchi IDE (ikki qavatli) Slave kabi CD/DVD disk yurutuvchi 2.

Tizimni installyatsiya qilishda oldingi manzarali plastik panel ostidagi metallga qarang. Aslida metall dan yasalgan korpus plastik panellar ostiga yashirilgan. Butun oldingi bolimi yoki eng kam deganda uning disk yurutuvchi o'rnatiladigan qismi katta metall parchasidan ishlanadi. Keyin unda teshiklar ochiladi. Bir necha yillar davomida korpuslar uchun me'yorlar metall turini belgilab kelmoqda, chunki faqat metallgina elektromagnit nurlanishini kamaytirishi mumkin.



Amaliyotda ikkita variant bor. Agar metall yopqich (zaglushka)lar oldindan siqib chiqazilgan bo'lsa, ular metall qirquvchi qaychi bilan kesib olinadi yoki kuch bilan siqib chiqariladi. Agar kompyuterning korpusi yuqori sifatga ega bo'lsa, bu metall panellarning istalgan paytda olib tashlash va boshqasiga almashtirish mumkin. Bu kabellarni kompyuter korpusiga zarar yetkazmay olib tashlash imkoni bor-yo'qligini tekshirib ko'rish lozim. Teshikni ochib, SD-ROM disk yuru-tuvchini ichkariga joylashtirish, uni o'z joyiga vint bilan mahkamlab qo'yish mumkin.

Buning uchun yo'li ingichka qilib kesilgan vintlar zarur. Bu ishda 4 ta vintdan foydalaniladi. Vintlarni haddan tashqari qattiq tortish kerak emas. Chunki ortiqcha kuch ishlatish korpusda kuchlanish hosil qilib, uning qiyshayishiga sabab bo'lishi mumkin. Disk yurutuvchining aylanish tezligi qancha yuqori bo'lsa, bu ta'sir shuncha katta bo'ladi. Shuning uchun vintlarni disk yurutuvchi yaxshi mustahkamlanganida ishonch hosil qi-linguncha, ammo korpusni deformatsiyalamaydigan qilib burash kerak. CD ROM disk yurutuvchilarning harorat rejimi haqida, xuddi vinchesternikidek, g'amxo'rlik qilish kerak.

Ba'zida mustahkamlash uchun maxsus yo'naltiruvchi rels-lardan foydalaniladi. Ular disk yurutuvchiga mahkamlanadi.



19- rasm



20-rasm



Tasma kabellarni ulash

Simlarsiz shaxsiy kompyuter

Qirq tishli IDE kabeli (80 simli) CD-ROM disk yurutuvchi uchun ulanadi.



22- rasm

